

## TO‘RTINCHI SINF “O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSIDAGI LIRIK ASARLARNING LEKSIK TARKIBI

Akbarova Kamola – Qo‘qon DU 2-bosqich magistranti,  
Isaqov Zokirjon Soliyevich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**Annotatsiya.** Maqolada 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligiga kiritilgan lirik asarlardagi leksik birliklarning tarkibi, ularning uslubiy xususiyatlari hamda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** lirik asar, leksik tarkib, qit’a, vazn, band, fard, qofiya, ohangdosh, his-tuyg‘u.

**Аннотация.** В данной статье научно анализируется состав лексических единиц лирических произведений, включённых в учебник «Читательская грамотность» для 4-го класса, их стилистические особенности и их роль в развитии речевой компетенции учащихся.

**Ключевые слова:** лирическое произведение, лексическое наполнение, строфа, размер, предложение, личность, рифма, мелодика, эмоциональность.

**Abstract.** This article provides a scientific analysis of the vocabulary of lyric works included in the "Reading Literacy" textbook for fourth-grade students, their stylistic features, and their role in developing students' verbal proficiency.

**Keywords:** lyric work, vocabulary, stanza, meter, sentence, personality, rhyme, melody, emotionality.

Badiiy adabiyot asarlari xilma-xil bo‘lib, ular 3 ta turga bo‘linadi: lirik, epik, drammatik asarlar. Lirik asarlarga har qanday shakldagi she‘rlar, she‘riy masallar, g‘azallar, ruboiy, tuyuq, fard, qo‘shiq, qit’a, qasida, musamman, murabbaa kiradi. Bunday asarlarda voqelikning, narsalarning yoki shaxslarning kechinmalari ko‘rsatiladi[1.10]. Ammo turmushni epik bayon va lirik ifoda bilan birga qo‘shgan holda tasvir etgan she‘riy shakldagi badiiy asarlar [1.96] ham mavjud bo‘lib, ularni keyingi paytlarda adabiyotshunoslar nasriy turga mansub, deb qarashmoqda. Biz ishimizda liro-epik tur deb belgilanib kelingan asarlarni ham tuzilish xususiyatiga ko‘ra she‘riy asar sifatida tahlil qildik. Lirik tur asarlari his-tuyg‘uga asoslangan bo‘lib, vazn-o‘lchovlar asosida tuziladi. She‘riy asarlar o‘quvchilarga voqea-hodisa haqida xabar berishni emas, shu holatdan muallifning olgan his-tuyg‘usini ifodalashga xizmat qiladi.

Darslikdagi barcha she‘riy asarlar she‘riyatning barmoq turi(misralardagi hijolarning miqdoriga asoslangan she‘r vazni) [1.42]ga mansub bo‘lib, she‘r tuzilishining g‘oya (hayot hodisalari haqida kishilarning tasavvuri va o‘sha hodisalarga munosabati ifodalangan tafakkuridan iborat) [1.270], ritm (she‘r) misralaridagi bir-biriga teng nutq bo‘laklarining bir tekisda izchil takrorlanib kelishidan paydo bo‘ladigan ohangdoshlik) [1.21], vazn (she‘r o‘lchovi, me‘yori), band (she‘rning alohida qofiyalanish tartibiga ega bo‘lgan yirik ritmik bo‘lak) [1.270], misra (she‘rning bir satri, yo‘li), hijo (bir nafas olish bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar birikmasi – she‘riy nutq o‘lchovida dastlabki ritmik bo‘lak), turoq

(barmoq vazni she‘r misralaridagi ritmik bo‘laklar), qofiya (ohangdosh so‘zlarning misralarida tizimli bo‘lib kelishi)[2.21].

4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligidagi lirik asarlarning leksik tarkibi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ular o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, badiiy tafakkurini rivojlantirish va estetik didini shakllantirishga xizmat qiladi.

Leksik tarkibning asosiy xususiyatlari:

1. Tabiatga oid so‘zlar va obrazlar: darslikdagi lirik asarlarda tabiat manzaralarini tasvirlovchi so‘zlar keng qo‘llaniladi. Bu orqali o‘quvchilarda tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otiladi.

2. Badiiy ifoda vositalarining boyligi: she‘rlarda tashbeh (o‘xshatish), tashxis va qofiya kabi badiiy vositalar orqali tilning boyligi va go‘zalligi namoyon etiladi. Bu o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Soddalik va tushunarlilik: lirik asarlar bolalar yoshiga mos, sodda va tushunarli tilda yozilgan. Bu o‘quvchilarning matnni oson tushunishiga va o‘z fikrlarini ifodalashga imkon beradi.

4. Milliy qadriyatlar va urf-odatlar aks ettirilgan: lirik asarlarda o‘zbek xalqining milliy qadiyatlari va an‘analari ifodalangan bo‘lib, bu o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash hissini kuchaytiradi.

5. Emotsional ta‘sirchanlik: she‘rlarda his-tuyg‘ularni ifodalovchi so‘zlar va iboralar orqali o‘quvchilarning emotsional dunyosi boyitiladi, ularning estetik didi shakllanadi.

Nazarmat Egamnazarovning “Buyuk mehring” [3.12] she‘ri 6 band, 24 misradan, 113 ta so‘zdan iborat. Barmoq vaznida, (6+5) 11 hijodan (bo‘g‘indan) tuzilgan, 2 turoqli. Qofiyalanishi: a-b-a-b. Ohangdosh so‘zlar: suyuk – buyuk, ko‘rking – mehring, sezmay – sevmay, o‘zligim – so‘zligim, joying – chiroying, jon – qon, to‘kmaganmiz – egmaganmiz, madhing – ko‘rking. Bu she‘rda buyuk, bor, bo‘lurmi, ham, mehring so‘zlari 2 martadan ishlatilgan. Qolgan barcha so‘zlar 1 martadan ishlatilgan.

“Buyuk mehring” she‘ri o‘zbek xalqining milliy g‘ururi, tarixiy merosi va ona Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatini ifodalovchi lirik asardir. She‘rning leksik tarkibi chuqur ma‘no qatlamiga ega bo‘lib, u o‘ziga xos semantik va uslubiy xususiyatlarga boy. She‘r leksikasining asosiy xususiyatlari:

1. Milliy va tarixiy leksik birliklar: she‘rda “Temurbek”, “Navoiy”, “Turkiy el”, “O‘zbekim”, “Ona diyorum” kabi so‘zlar ishlatilgan bo‘lib, ular o‘zbek xalqining tarixiy shaxslari va milliy o‘zligiga ishora qiladi. Bu so‘zlar milliy g‘urur va tarixiy xotirani uyg‘otadi.

2. Hissiy va bo‘yoqdor so‘zlar: “buyuk mehring”, “munavvar olamda”, “dillarda yangragan”, “dilrabo erur” mehr, sadoqat, ezgulik, sevgi kabi jumlar o‘quvchilarda Ona Vatanga bo‘lgan chuqur muhabbat va sadoqat uyg‘otadi.

3. Oddiy, xalqona leksika: xalq tiliga yaqin, sodda va samimiy so‘zlar bilan yozilgan. Bu esa o‘quvchilarda tushunarli va yurakka yaqin bo‘lishini ta‘minlaydi.

Azim Suyunning “Vatan yoshlari”[3.21] she‘ri 3 band, har bandi 6 misradan, jami 24 misra va 85 ta so‘zdan iborat. Toq misra 6+5, juft misralar 6+4 hiyo (bo‘g‘in)dan iborat, 2 turoqli. Qofiyalanishi: a-b-a-b-a-b, barmoq vaznida yozilgan. Ohangdosh so‘zlar: nasl – mas‘ul, qadam – mukarram, meros – ixlos, kimniki –

barchamizniki, qadam – mukarram, porloq – bayroq. Ushbu she’rda yurt so‘zi 6 marta, bo‘lsin, ozod, obod, mardona-mardona, mukarram, Vatan, yoshlari, tashlaylik, qadam so‘zlari 3 martadan, qolgan barcha so‘zlar bir martadan ishtirok etgan.

Asarda yosh avlodning Vatanga bo‘lgan muhabbati, fidoyiligi va jasoratini madh etuvchi asar bo‘lib, undagi leksik tarkib o‘ziga xos xususiyatga ega.

1. Vatanparvarlik ruhidagi so‘zlar: she’rning asosiy qismini Vatanga oid so‘zlar tashkil etadi. Vatan, bayroq, ona tuproq, xalq, erkinlik, ozod yurt kabi so‘zlar yoshlarning Vatanga bo‘lgan sadoqatini va g‘ururini ifodalaydi.

2. Qahramonlik va fidoyilik: she’rda ishlatilgan so‘zlar orqali jasorat, matonat, mardlik timsollari chiziladi. “Elga qalqon”, “mard o‘g‘lon”, “botir yuraklar” kabi jumlar ishlatilishi yoshlarning mardligini va Vatan uchun kurashishga tayyorligini ko‘rsatadi.

3. Jo‘shqin, buyruq ohangdagi so‘zlar: “Yur, yurt uchun xizmat qil”, “Olg‘a yoshlar” kabi so‘zlar she’rga jo‘shqinlik va harakat ruhini beradi, o‘quvchilarni ruhlantiradi.

4. Yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga oid so‘zlar: sharaf, vijdon. or-nomus, sadoqat, fidokorlik kabi so‘zlarning ishlatilishi yosh avlodning ma’naviy tarbiyasi va axloqiy qadriyatlarini ifoda etadi.

5. Obrazli, hissiy kuchli so‘zlar: “yuragingda yurt muhri”, “ko‘ksingda bayroq hilpirar” kabi metaforalar orqali Vatanni qalban sevishni ifodalaydi.

Miraziz A‘zamning “Ona tili”[3.42] she’ri 4 band, har har bir bandi 4 misradan iborat bo‘lib, jami 16 misra, 62 ta so‘zdan tashkil topgan. Turkiy tilim so‘zi 4 marta, ona tilim so‘zi 3 marta, O‘zbek tilim so‘zi 3 marta, ko‘rkli so‘zi 2 marta, dono so‘zi 2 martadan qatnashgan. Qolgan barcha so‘zlar bir marotabadan ishlatilgan. Ushbu she’r o‘zbek tilining go‘zalligi, qudrati va ma’naviy ahamiyatini tarannum etadi. She’rda qo‘llangan so‘zlar o‘zining ma’no chuqurligi, obrazlilik va emotsional ta’sir kuchi bilan ajralib turadi. Avvalo, she’rda ishlatilgan so‘zlar ma’naviy yukka ega. “Ona tilim” iborasi nafaqat tilga, balki butun milliy qadriyatlarga bo‘lgan chuqur mehrni ifodalaydi. Shuningdek, iymonim, ruhim, dardim kabi so‘zlar orqali shoir tilni insonning ichki dunyosi, e’tiqodi bilan bog‘laydi. Bundan tashqari she’rda emotsional so‘zlar keng qo‘llanilgan. Mehr-muhabbat, sadoqat, g‘urur kabi tuyg‘ular yoritib berilgan. Sodda va xalqchil tilda yozilgan, o‘quvchilar esda saqlashi oson bo‘ladi.

Quddus Muhammadiyning “Do‘st do‘stga oyna ekan”[3.11] she’ri 5 band, 24 misra, 81 ta so‘zdan iborat, Barmoq vaznida yozilgan, 2 turoq, 7 hijo (bo‘g‘indan) iborat bo‘lib, qofiyalanishi a-a-b-b. Ohangdosh so‘zlar: bir-birin – qadrin, quvvatlashmasa – anglashmasa, uddalolmas – yetolmas, sharofati – qanoti, bordi – oldi, qamradi – jamladi. Bu she’rda bir-biriga so‘zi 2 marta, bo‘ldi so‘zi 3 marta, do‘st so‘zi 3 marta, demak, oyna so‘zlari 3 martadan, ekan so‘zi 4 marta, olam so‘zi 2 marta, qolgan so‘zlar bir martadan ishlatilgan.

She’r bolalar adabiyotiga mansub bo‘lib, do‘stlik, rostgo‘ylik va sadoqat g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan. She’rda ishlatilgan so‘zlar shaklan sodda bo‘lsa-da, ma’no jihatidan chuqur va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Avvalo, she’rda ishlatilgan so‘zlar tarbiyaviy yo‘naltirilgan. “Do‘st”, “oyna”, “rost”, “yaxshi”, “yordam” kabi so‘zlar orqali bolalarga chin do‘stlikning mohiyati, ochiqlik va samimiyatning ahamiyati tushuntiriladi. She’rda asosiy obraz – “oyna” ramzi orqali do‘stning

oynadek toza, halol va rostgo‘y bo‘lishi ta‘riflanadi. Bu – metaforik ifoda bo‘lib, so‘zlarga chuqur ma‘no va badiiylik bag‘ishlaydi. Shuningdek, so‘zlar sodda, ravon va bolalar uchun tushunarli tarzda tanlangan. Har bir satr yengil ohangda o‘qiladi, esda qoladi va o‘quvchiga tushunarli bo‘ladi. She‘rda ishlatilgan so‘zlar mehr, samimiyat va do‘stlik hissi bilan yo‘g‘rilgan. Bu esa bolalarda ijobiy tuyg‘ularni shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, so‘zlar ritmik va musiqiy uyg‘unlikka ega bo‘lib, she‘rning ohangdorligini ta‘minlaydi. Bu jihatlar bolalar uchun yod olishni va she‘rni zavq bilan o‘qishni osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligidagi lirik asarlar o‘zining leksik tarkibi bilan bir qatorda o‘ziga xos xususiyatga ega. Ular rang-barang so‘z boyligiga, obrazli ifodalarga va hissiy-ta‘sirchan birliklarga boy bo‘lib, o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytiradi. Boshlang‘ich sinflarda lirik asarlarning leksik tahlili nafaqat ta‘limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Homidiy H., Abdullayeva Sh va boshqalar. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – 252 b.
2. Boboyev. T. She‘r ilmi ta‘limi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 210 b.
3. Aydarova U.B, Azizova N.K, Toirova M.E. 4-sinf. O‘qish savodxonligi. I-II qismlar. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 160 b.